https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Karimova Dilorom Sherzod qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi 2-bosqich magistranti
dilorom.boymaqova07@gmail.com

TOHIR MALIK IJODIDA INSONIYLIK VA MA’NAVIY TARBIYA (“Odamiylik mulki “asari misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalqining sevimli yozuvchisi Tohir Malik ning faoliyati, zamondosh yozuvchilar hamda shogirdlarining fikrlari aks etgan. Hamda “Odamiylik mulki” asari asosida insoniylik, mehr-shafqat, odob axloq, o‘zlikni anglash kabi go‘yalar ilgari surilganligi haqida gap boradi .Shuningdek ushbu asarni yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati haqida ochib berilgan. Asardagi ba’zi bir bob tahlili yoritilgan bo‘lib; oyatlar, hadislar, hikmatli so‘zlar, maqollar sharhi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. odamiylik, tarbiya, ilm, jamiyat, kelajak avlod, hadis, hikmat,halollik.

HUMANITY AND SPIRITUAL EDUCATION IN THE WORK OF TAHIR MALIK (On the example of the work “Odamiylik mulki”)

Abstract. This article reflects the work of the beloved writer of the Uzbek people, Tohir Malik, the thoughts of contemporary writers and his students. It also discusses the ideas of humanity, compassion, decency, and self-awareness put forward in the work "The Property of Humanity". It also reveals the role and importance of this work in the upbringing of the younger generation. An analysis of some chapters in the work is highlighted; verses, hadiths, wise sayings, and proverbs are described.

Keywords. humanity, education, science, society, future generation, hadith, wisdom, honesty.

ГУМАНИЗМ И ДУХОВНОЕ ВОСПИТАНИЕ В ТВОРЧЕСТВЕ ТАХИРА МАЛИКА

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

(На примере произведения”Одамийлик мулки”)

Аннотация. В данной статье отражены работы любимого узбекского писателя Тохира Малика, мысли современных писателей и его учеников. Также рассматриваются идеи гуманизма, доброты, порядочности и самосознания, выдвинутые на основе произведения «Достояние человечества». Раскрывается роль и значение этого произведения в воспитании молодого поколения. Приводится анализ некоторых глав произведения; комментарий к стихам, хадисам, мудрым изречениям и пословицам.

Ключевые слова. гуманизм, воспитание, наука, общество, будущее поколение, хадис, мудрость, честность.

Adabiyot — bu inson qalbining eng chuqur qatlamlariga yetib boruvchi sehrli vosita. Har bir yozuvchi o‘z davrining og‘riqlari, orzulari va haqiqatlarini o‘zida aks ettiradi. O‘zbek adabiyotida ana shunday zabardast yozuvchilardan biri — Tohir Malikdir. O‘zbek adabiyotining zamonaviy taraqqiyotida inson ma’naviyati,axloqiy qadriyatlar va ruhiy tanlov masalalarini teran badiiy tafakkur bilan yorituvchi ijodkorlardan biri ham bu Tohir Malik. Yozuvchining asarlarida odamiylik, vijdon, halollik va mas’uliyat kabi tushunchalar markaziy o‘rinni egallab, ular hayotiy voqealar orqali ta’sirchan ifoda etiladi.Tohir Malik ijodining boshidagi asarlari o‘zbek xalqining hayot tarzini aks ettirgan bo‘lsa , mustaqillikdan keyingi yillardagi asarlarida diniy-ma’rifiy tarbiyaviy yo‘nalish ustunlik qildi.

Tohir Malikning shogirdlari ham adib haqida yozar ekan “Tohir Malik rosa hazilkash, ancha askiyachi odam. Tohir Malik jiddiy asarlarini yozayotgan paytdagina jiddiy bo‘ladi. Siz bilan gaplashganda esa, hazil bilan boshlangan suhbat askiya bilan tugaydi” deydi Karimberdi To‘ramurod. Yozuvchi Erkin Malik ham adibning “Odamiylik mulki” asari haqida so‘z yuritar ekan shunday deydi “Bundan o‘n besh yillar muqaddam ushbu kitobning ilk qaldirg‘ochlari paydo bo‘lgan edi. Ular «Mehmon tuyg‘ular», «Iymonlashish umidi» nomlari bilan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

o‘quvchilar qo‘liga taqdim etilgan edi. Biz Tohir bilan ikkinchi kitobchaning nomi ustida ko‘p bosh qotirganmiz. «Iymonlashuvmi - imonlashishmi, umididami umidimi?» Shuningdek, «Hidoyat» jurnalida «Shudring tomchilari» nomi bilan ham davomli bosilgan edi. «Ortiqcha bo‘yoq deb muallif «Shudring tomchilari»ga unamagan edi. Kitoblar axloq va odob mavzusida bo‘lgani uchunmi, ishqilib, tezda tarqab ketdi. Demak, kitobxonlarda bu mavzuga ehtiyoj, chanqoqlik bor. Shuni ham aytish kerakki, savdo do‘konlarida bu yo‘nalishdagi kitoblar yo‘q emas, bor, bo‘lganda ham anchagina edi. Lekin hammasi ham Tohirga o‘xshab,o‘xshatib yozilmagan edi. Tohir xalq yozuvchisi-da, xalqi nimalarni xoxlayotganini, ular bilan qay yo‘sinda tillashishni biladi, yurakdan yozadi va yuraklarga yetib boradi. Xalqimiz bu ikki kitobchani qizg‘in kutib olganidan ilhomlangan adibimiz uni yanada kengaytirishni o‘yladi. Mustaqil yurtimizning buguni va ertasi bo‘lgan bolalar tarbiyasini o‘ylab, «Jinoyatning uzun yo‘li» kitobini yozdi va muallimlar uchun tarbiyaning juda ko‘p qirralari ochilgandek bo‘ldi” Shuningdek gap bugungi, yangi asr avlodlarini anglash haqida borardi. Tohir Malik bu asarlari orqali xalqni ko‘nglidan joy ola oldi,hatto asarlari dasturi amal darajasiga chiqdi. Ushbu asar to‘liq yozilgach islomiy taraflarini ko‘rib berish uchun, shu soha olimi Muhammad Sharif Jumanga berildi. Kitobning ilk taqdimoti esa 2012-yili adibimiz ishlagan militsiya akademiyasida bo‘lib o‘tgan. Shu tadbirda so‘zga chiqqan adabiyotshunos olim Zuhriddin Isomiddinov kitobning hajmi yostiqdek bo‘lganini aytib kitobga “Ilmlar yostig‘i, ilmlar sandig‘i” deya ta’rif bergandi. Darhaqiqat, bu kitob yostiqdan tushmayotgani, uni o‘qib uyquga ketilayotgani, uyqudan turib yana o‘qilayotgani rost edi.

Yozuvchining uslubi lo‘ndaligi, mantiqiyligi va hayotiyligi bilan ajralib turadi. Adibning “Odamiylik mulki” asari ham huddi shunday xazinalardan biri edi. Ushbu asar badiiy-publististik uslubda yozilib, o‘zida milliy va diniy qadriyatlar , Sharq allomalarining hikmatlari, xalq og‘zaki ijodining durdonalari uyg‘un holda yaratilgan. Asarda Qur’on oyatlari,hadislar hamda Alisher Navoiy , Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, So‘fi Olloyor kabi alollamalarning hikmatlari va

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

xalq maqollari ham keltirilgan. Bu esa asarni falsafiy, ma'naviy va didaktik jihatdan qimmatli qilgan. "Odamiylik mulki"asar nomining o'ziyoq insoniylik tushunchasini bosh g'oya sifatida ilgari suradi. Asarda odamiylik nafaqat fazilat, balki jamiyatda yashashning asosiy mezoni sifatida talqin qilinadi Yozuvchi insonni moddiy boylik emas, balki axloqiy qadriyatlar ulug'lashini badiiy vositalar orqali asoslab beradi. Asar tili mazmun jihatidan chuqur va ko'p qatlamlidir. Ushbu asar tarbiyaviy falsafiy ahamiyatga ega bo'lib, jamiyat uchun ham dolzarbdir. Yosh avlodni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muhim manbaa bo'la oladi.

Yozuvchi "Husnu xulq" bobida shunday yozadi "Qanday bo'lsang -shunday ko'rin, qanday ko'rinsang -shunday bo'l!" ushbu shior har bir xonadon peshtoqiga yozib qo'yilgani ma'quldir?" ushbu jumlalar bilan yozuvchi har bir kishining asli kabi ko'rinmog'i kerakligini takidlaydi. Bu jumlalar har bir davr uchun muhim eslatmadir .

Bugungi kunda yoshlarga o'rnak bo'luvchi mavzular juda ko'p bor tilga olingan. Masalan: salom berish odobi haqida ko'p so'z boradi. "Bizning odobimizga ko'ra, kichiklar kattalarga salom beradilar. Lekin kichiklar ba'zan bolaliklariga borib yo biron narsaga chalg'ib, salom berishni unutishlari mumkin. Shunday kattalar ularni darrov urushmay, salom bersalar shuning o'zi dakki o'rnida o'tadi" deya chiroyli usulda tushuncha berganlar. "Maslahat marvaridga o'xshaydi.Odamlar tosh bo'lsa, ular orasida birorta nodir so'z-marvarid chiqishi mumkin" deya adabiyot ihlosmandlariga buyuk bir xazina qoldirgan adibimiz o'zining sermazmun asarlari, chuqur hayotiy tahlillari bilan o'quvchilar qalbidan chuqur joy egallagan.

Tohir Malik yozadi; "Donolar demishlarkim:Sen o'zingni ko'rmoq istaysanmi? U holda ko'zgudagi tashqi qiyofangga emas, ichingdagi ko'zguga boq" inson bu kitobni o'qir ekan dunyo yaratuvchisini taniydi, sarvari koinot payg'ambarini taniydi, so'ngra dunyoga kelishiga sababchi bo'lgan ota onasini, butun borliqni

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

taniydi. Ishq, Baxt, Saodat saroylarida sayr qiladi. Oxir oqibat o‘zini tanib qoladi.Muhimi ham shu emasmi?!”

Xulosa

Odob axloq ijtimoiy masala bo‘lib u jamiyatda muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy masala bo‘lganligi uchun ham u faqat bir kishiga bog‘liq bo‘lmagan hodisadir. Jamiyatda bir ikki kishigina axloqli bo‘lgani bilan masala hal bo‘lmaydi. Jamiyat taraqqiyoti uchun ham ijtimoiy faol, go‘zal xulqli shaxsni tarbiyalash katta avlodning burchidir. Shuningdek Tohir Malikning ”Odamiylik mulki” asari ham insonning odamiylik fazilatlarini ulug‘lab ezgulikka chorlaydi. Shu o‘rinda yurtboshimizning “Biz yaratmoqchi bo‘lgan Yangi O‘zbekistonning mafkurasi — ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz.” deya ta’kidlaganlari yodga tushadi. Asardagi har bir pand- nasihat o‘quvchini chuqur fikrlashga, o‘z xulq atvorini tahlil qilishga, halollika, pok vijdonlilikka hamda ilmga chanqoqlikka chorlaydi. Adibning ushbu asarini nafaqat badiiy publististik asar balki ma’rifiy manbaa sifatida ham baholash mumkin. Asar xalqning xazinasi bo‘libgina qolmay, kelajak avlod tarbiyasi uchun ham dasturi amal sifatida qoladi. Ushbu asarni targ‘ib qilish va hayotga tatbiq qilish har bir insoniyatning burchi deb bilishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1.Malik T. Odamiylik mulki. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997.

2.Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekistonni birgalikda barpo etamiz – Toshkent “O‘ZBEKISTON”- 2016

3.Tohir Malik zamondoshlar xotirasida. – “Tohir MALIK nomidagi nashriyot uyi” ,2022

4. Karimov B. Zamonaviy o‘zbek nasrida ma’naviy izlanishlar. — Toshkent,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

5. Qo‘shjonov M. O‘zbek adabiyotida axloqiy muammolar talqini. — Toshkent